




MAVSUMDAN TASHQARI VAQTDA TUPROQNI ISSIQLIK MANBAYI BILAN TA'MINLASH TIZIMI.

Azilov Xursand Gulmon o'g'li
*Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti talabasi.*

Annotatsiya; *Bu maqola bugungi kungacha muammo bo'lib kelayotgan mavsumdan tashqari vaqtda tuproqni issiqlik manbayi bilan ta'minlash, shu bilan birga ko'chatlardan qish mavsumida mo'l va samarali hosil olish kabi muammoga oddiy usullar orqali hal qilish to'g'risida yozilgan.*

Kalit so'z: *Mavsum, issiqlik, sharoit, qish, rivojlanish, namlik, harorat, urug', sovuq, o'simlik, sabzavot, poliz, samarali, ozuqa, oddiy, hosil.*

Qish mavsumida kunlar sovib ketishi, tuproqning issiqlik manbayi keskin kamayib ketishiga ham sabab bo'ladi. Qishloq xo'jaligi ekinlari normal sharoitda o'sib rivojlanishi uchun tuproqda issiqlik miqdori yetarli darajada bo'lishi kerak. Urug'larni unib chiqishi uchun ma'lum bir namlik va kisloroddan tashqari, harorat sharoitlari urug'larning unib chiqishiga ta'sir qiladi. Buni tekshirish oson. Ikkita shisha idishni olaylik. Har bir idishning ichiga 10-15 ta loviya solib qo'yamiz va idishlar ichiga ozroqdan suv quyamiz, urug'lar to'liq namlanadi. Keyin esa bir idishni 18-19 gradusli haroratdagi xonada qoldiramiz. Ikkinchisini sovuqda, deraza tashqarisida yoki muzlatgichda qoldiramiz. (Bu yerda harorat 3-4 gradusdan yuqori bo'lmaydi.) 4-5 kun o'tgach, natijalarni tekshirib ko'ramiz. Bunda urug'larning faqat 18-19 gradusli xonada joylashganigina ko'karganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham urug'lar unib chiqishi uchun ma'lum bir harorat talab qilinadi. Nihol paytida ba'zi o'simliklarning urug'lari ko'p issiqlikni talab qiladi, boshqalari esa biroz. Misol uchun beda va javdar +1°; rediska va no'xat +2°; bug'doy +3° karam, sholg'om, sabzi +5°; makkajo'xori +8°; pomidor +10°; g'o'za +12°; qovun +15° haroratda yuqori bo'lmasa urug'lari unib chiqishga qiynalishadi yoki ko'karmay ham qolishi mumkin. Urug'larning bunday xususiyatlari har xil ekish sanalariga to'g'ri keladi. Bug'doy va javdar erta bahorda, qor erigandan ko'p o'tmay sepilsa pomidor va bodring kabi o'simliklar faqat bahor oxirida, tuproq yaxshi qizib ketganda ekishga to'g'ri keladi. Natijada sabzavot hamda poliz ekinlari pishib yetilishi ancha kech bo'ladi. Hozirda qishloq xo'jaligida bu kabi mahsulotlar issiqxonalarda erta bahordan yetishtirib, aholini erta bahordan sabzavot hamda poliz ekinlari bilan ta'minlanmoqda. Lekin, hozirgi kunda issiqxonalarda ham tuproqda yetarlicha issiqlik miqdorining bo'lmasligi sababidan tuproqdagi ozuqa moddalarini o'simliklarning o'zlashtirishi bir muncha qiyin bo'ladi. Natijada, ko'chatlarimizning rivojlanib ketishi bir muncha qiyin kechadi. Lekin bu kabi muammolarni har kim turlicha usullari bilan hal qilishga urinmoqda.





Men ham sizlarga bu muamoni yechishning oddiygina lekin, samarali bir usulini aytib bermoqchiman. Hozirgi paytda qish kunlari binolarning ichki tarafini qizdrish uchun "теплый пол" yani "issiq poldan " keng foydalanilmoqda. Odatda issiq polning ikki turi mavjud; suv orqali hamda tok orqali isitadigan turlari bor. Bizga esa suv orqali isitadigani kerak bo'ladi. Issiq pol odatda stayashka quyganda qo'shib quyuladi. Bitonning o'rtasida qolib ketadi. Bu qanday bo'ladi? Oldin bir qator biton yoyib chiqiladi. So'ngra issiq pol shlankasi qo'yiladi, keyin ustidan yana biton quyiladi. Endi shuni biz tupoqqa qo'llasak qanday bo'ladi? Misol uchun, pomidor yoki qulupnay ekmoqchisiz. Buning uchun biz pomidorimizga ariq (jo'yak) tortishdan oldin har bir ariq jo'yagiga "теплый пол" shlanlankasini yotqizib chiqamiz. Keyin jo'yag ustiga taxminan 30 sm qalinlikda tuproq tortiladi va shlankaning uchini katolga ulaymiz. Teply pol katollari avtomatlashgan holda bo'ladi va bizga doimiy tarzda bir xil issiqlik manbayini berib turadi. Natijada, bu bizning ko'chatimiz uchun muntazam qulay issiqlik manbayini yaratib beradi. Misol uchun, pomidor o'smligi uchun tuproq harorati +15° normal sharoit bo'lsa. Biz теплый полimizni +15° haroratga ustanovka qilib qo'yamiz. Natijada, tuproq harorati +15° dan oshmoqchi bo'lsa katolimiz avtomatlashgan holda o'chadi, agar tuproq harorati +15°dan tushib ketsa ham o'zi avtomatik tarzda yonib, qizdira boshlaydi. Bundan ko'rinib turibdiki endi siz hattoki qishning qahraton sovuq kunlarida ham qo'rqmasdan o'z issiqxonangizda dehqonchilik mahsulotlarini bemaol yetishtirishingiz mumkin bo'ladi. Bu tuproqni issiqlik manbayi bilan ta'minlash orqali tuproqdagi ozuqaviy moddalar almashinuvi ham yaxshilanadi. Natijada, ko'chatlarimizning o'sishi, rivojlanishi tezlashib oradan ko'p o'tmay mo'l hosil bera boshlaydi. Shuni ham bilib qo'yishimiz kerak, o'simliklar asosan o'sib, rivojlanishi uchun zaruriy ozuqani tuproq orqali o'zlashtradi. Shu sababdan tuproqni yetarli darajada issiqlik manbayi bilan ta'minlash juda muhim tadbir hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'.Pratov va boshq . Biologiya (Botanika) / 6 - sinf uchun darslik « O'zbekiston » NMIU . 2017.
2. G'.A.Samatov, J.Y.Yodgorov, Z.T.Siddiqov; "Issiqxona xo'jaliklarini tashkil qilish va yurtish". Toshkent 2007.
3. S.A. Azimboyev "Dehqonchilik, Tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari", Toshkent "IQTISOD-MOLIYA", 2006.

